

**O‘SMALAR O‘SISHINING TEZLIGI, O‘SMALAR PROGRESSIYASI.
XAVFLI VA XAVFSIZ O‘SMALAR XUSUSIYATI VA TASNIFI**

Akramov Abdullo Ahmad o‘g‘li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

E – mail: abdullohakramov313@gmail.com

Xamdamov Botirjon Nusratillo o‘g‘li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

E – mail: xamdamovbotirjon011@gmail.com

Annotatsiya: Yillar davomida ishlab chiqarish va sanoat rivojlanmoqda, bu esa atmosferada turli gazlarning ko‘payishini va tirik organizmdagi turli mutatsiyalar natijasida o‘smalarning rivojlanishi va o‘shini rag‘batlantiradi. Hozirgi vaqtda yomon shishlar tirik organizmga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Organizmda xavfli o‘smalarning ko‘payishi odamlar va tirik mavjudotlarning hayotini tugatishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Papilloma, fibroma, lipoma, gibernoma, miksoma, mutatsiya, metastaz, o‘smaning o‘sh tezligi.

**TUMOR GROWTH SPEED, TUMOR PROGRESSION. CHARACTERISTICS
AND CLASSIFICATION OF DANGEROUS AND SAFE TUMORS**

Abstract: Over the years, production and industry are developing, which is stimulating the increase of various gases in the atmosphere and the development and growth of tumors as a result of various mutations in the living organism. Currently, malignant tumors have a negative effect on the living organism. The increase of malignant tumors in the organism ends the life of people and living creatures.

Key words: Papilloma, fibroma, lipoma, hibernoma, myxoma, mutatsion, metastasis, tumor growth rate.

Tabiatdagi eng sirli hodisalardan biri bu o‘smalardir. Nima uchun? – deyishimiz mumkin. Sababi, o‘sma (tumor, neoplaziya, blastoma) organizmda hech qanday sababsiz, zaruriyat bo‘lmasdan, hujayralarning nazoratsiz o‘sishi va cheksiz ko‘payishi bilan kechadigan patologik jarayondir.

Barcha o‘smalar tuzilishi, nechog‘lik tabaqalanishi, biologik xossalari va klinik o‘tishiga qarab, ikkita asosiy guruhga – xavfli va xavfsiz o‘smalarga bo‘linadi.

Xavfli o‘smalar xavfsiz o‘smalardan farqli o‘laroq, infiltrativ o‘sishi, retsidiv berishi, ya’ni qaytalanishi, metastazlar berishi va organizmni o‘ta ozib ketishiga olib keladi. Xavfli o‘smalarning tuzilishi va funksiyasi jihatidan, tabaqalashmagan hujayralardan tashkil topadi. Ular uchun nainki to‘qima atipizmi, balki hujayra atipizmi ham harakterlidir. Ularning o‘shish tezligi tevarak – atrofga to‘qimaning aynashiga, destruksiyasiga, infiltrlovchi o‘shish tezligiga qarab o‘shib boradi. Ular polimorf bo‘lib, hujayralari katta – kichikligi va shakli jihatdan har xil, yadrolari giperxromdir. Yadro – sitoplazma nisbati normada 1:4, 1:6 ni tashkil etadigan bo‘lsa, o‘smalarda bu nisbat 1:1ni tashkil etadi, ya’ni ular teng holatda turadi. Bu ularning shakliga, yadrosining kattaligiga bog‘liq bo‘ladi. Xavfli o‘smalar hech qachon xavfsiz o‘smalarga aylanmaydi.

Xavfsiz o‘smalar tabaqalashgan, o‘zi paydo bo‘lgan to‘qimaga o‘xshab ketadigan hujayralarni o‘z ichiga oladi. Xavfsiz o‘smalar atrofdagi to‘qimalarni itarib, destruksiyasiz eksponsiv tarzda o‘shish xususiyatiga ega. To‘qima atipizmi ham xavfli emas, balki xavfsiz o‘smalar uchun xos bo‘lib, asta – sekin o‘sadi va kapsula bilan o‘ralib oladi.

O‘smalar o‘shish tezligi jihatidan xavfli va xavfsiz o‘smalarda ikki xil bo‘ladi. Xavfsiz o‘smalar, odatda, asta -sekin o‘shish xususiyatiga ega bo‘lib, ular bir qadar katta bo‘lishi uchun oylar va yillar kerak bo‘ladi. Bu xususiyat bilan ma’lum bir holatlarda istisno holatlar ham mavjud bo‘lib, xavfsiz o‘smalar tez o‘shib borishi mumkin. Bularga misol sifatida, bachadon leyomiomasi kiradi. Xavfsiz o‘smalarning o‘shish tezligi qon bilan qanchalik yaxshi ta’minlanishiga ham bog‘liq. Masalan, gipofiz adenomasi qon bilan ta’minlanish darajasiga qarab har xil tezlikda o‘sadi.

Xavfli o'smalarning o'sish tezligi esa ularni tashkil etgan hujayralarning qay darajada tabaqalanishiga, kinetik xossalariga, mitotik siklning qancha davom etishi, o'suvchi qismlarning katta – kichikligi, o'smalarning halok bo'lib turishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, yuksak darajada rivojlangan o'smalar tuban darajada tabaqalashgan o'smalardan tezroq o'sib boradi. O'sma hujayralarning o'sish tezligi normal hujayralarning o'sish tezligi bilan bir xil (16 – 60 soat atrofida) yoki sal pastroq. Malignizatsiyaga uchragan bitta hujayradan diametric 1 sm keladigan o'sma paydo bo'lishi uchun yillar kerak bo'ladi.

O'sma hujayralaridan fibroma – asosan xavfsiz o'smalar tipiga kiradi. Bu o'sma nisbatan kam uchraydigan xili hisoblanadi. Uning paydo bo'lish joyi xilma – xil to'qimalarda, teri, bachadon, tuxumdon, sut bezi, me'da devorida bo'ladi. Fibromalar kapsula bilan o'ralgan, qattiq, kulrang tusli, elastik tuzilma bo'lib, kesib ko'rilganda yuzasi yaltiraydi. Qon quyilgan va nekrozga uchragan joylari bo'lmaydi. Miksoma – faqat kindik tizimchasi, perinevriy va yurak klapanlarida uchraydigan mucooid, ya'ni shilimshiq moddali to'qimadan kelib chiqadi. Bu o'sma parenximasida fibroblastlar va makrofaglar uchraydi. Fibroblastlar o'simalari bilan birga tutashib turadi va shaklan o'rgimchakka o'xshab ketadi. Lipoma bu – yog' to'qimasidan hosil bo'ladigan o'sma. Uning joylashishi bo'yin, gavda, yuz, qo'l terisi ostidagi kletchatkada, ba'zan esa qorin pardasi ostidagi bo'shliqda bo'ladi. Lipoma elastic bo'lib, kattaligi 3smdan 5smgacha bo'lishi mumkin. Yumaloq – tuxumsimon shaklda, kapsulasi nozik va yupqa bo'ladi. Gibernoma – qong'ir yog' to'qimasi bo'lib, qishki uyqu bezlarning rudimentar qoldiqlaridan o'sib chiqadigan o'sma hisoblanadi. Bu lipomalarning kamdan – kam uchraydigan turidir. Bu o'smaning joylashishi esa odamning orqasida yoki qo'ltiq soti sohasi (regio axillaris) da qo'ng'ir rangda bo'lishi mumkin. Uning sitoplazmasi uya – uya bo'lib, ichida mayda yog' tomchilari bo'ladigan poligonal yirik hujayralardan tashkil topgan. Papilloma – epidermis hujayralaridan tuzilgan bo'lib, ostki qismi yo'g'on yoki ingichka tortgan gulkaram ko'rinishida bo'ladi. Mikroskopik jihatdan papilloma epitilial qatlamga deyarli o'xshaydi. Hujayralari yetilgan bo'lib, mitozlar uchramaydi. Joylashishi bo'yicha teri, oraliq epiteliy, muguzlanmaydigan yassi epiteliy bilan qoplangan

shilliq pardalarda, buyrak jomlarida qovuq, siydik yo'llari va boshqalarda ham uchraydi.

Xulosa: O'sma odamning haddan tashqari ozib ketishiga, ya'ni kaxeksiyaga olib keladi. Inson tashqi muhit bilan doim aloqada bo'lar ekan, sog'lig'I borasida doim qayg'urishi lozim. O'smalar insonning hayotiga ba'zan xavf solishi yoki o'z – o'zidan yo'qolishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.S.Abdullaxo'jayeva. Patologik anatomiya, darslik, Toshkent – 2012.pdf;
2. N.H.Abdullayev. H.YO.Karimov. B.O'.Irisqulov. Patologik fiziologiya, darslik, Toshkent – 2008.pdf;
3. A.Strukov. Patologik anatomiya, darslik, Toshkent – 1973.pdf;
4. M.Haqberdiyev. Patologik fiziologiya, darslik, Toshkent – 2009.pdf.